

**IJTIMOIIY-MADANIY MAKON ZAMONAVIY LINGVISTIKA NUQTAI NAZARIDA
ILMIY-OMMABOP MATNLARNING PRAGMATIK POTENSIALI**

*M. Tadjibayev*¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ilmiy-ommabop matnlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning jamiyat rivojida tutgan o'rne, pragmatik potensial (salohiyat) tushunchasi, ilmiy-ommabop matnlarning pragmatik potensialini vujudga keltiruvchi omillar haqida so'z yuritilgan. Ingliz va o'zbek tillaridagi ilmiy-ommabop matnlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy-ommabop matn, pragmatika, pragmatik potensial (salohiyat), persuazivlik, suggetivlik, adresat, baholovchi leksika

doi: <https://doi.org/10.2024/8qz7md59>

Bizga ma'lumki, matn va diskursning zamonaviy tadqiqi kommunikativ – matnning iste'moldagi til sifatidagi qo'llanilishi va kognitiv – matnning ma'lumot va bilimlarning shakllanishi va yetkazilishidagi xususiyatlarining uyg'un holda tadqiq qilinishi bilan xarakterlidir. Tilning kommunikativ mohiyatining muhim jihati nutqning ta'siridir. Ommaviy va shaxslararo muloqot sharoitida ta'sir vositalarini va ularning samaradorligini, boshqacha qilib aytadigan bo'lsak pragmatik salohiyatini oshirish zamonaviy tilshunoslikning muhim amaliy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ilmiy-ommabop matnlarning lisoniy xususiyatlari pragmatik potensial yaratishda ularning ahamiyat yuqori bo'lgani uchun qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Ilmiy-ommabop matn bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- Yagona kommunikativ muloqot va maqsad – mutaxassis bo'lmaganlarga ilmiy bilimlarni yetkazish;

- Muhim va qiziqarli ilmiy materialni tushunarli va ko'ngilochar tarzda yetkazib berish orqali soha mutaxassislari va nomutaxassislari o'rtasida aloqa o'rnatadi;

- Adresat sifatida matnning maqsadga mosligini belgilaydigan nomutaxassis o'quvchilar bo'lsa, adresant sifatida nafaqat mutaxassis olim, balki mavzu bo'yicha zaruriy bilimga ega bo'lgan jurnalist yoki yozuvchi ham bo'lishi mumkin. A. Yu. Kiselyovning fikricha mana shu holatda adresat omili ustunlik qiladi; [1.10-b]

- Persuazivlik (ingl. ishontirish) – jurnalistik matndagi kabi ishontirish effektiga e'tibor qaratish;

- Suggetivlik (ingl. taklif qilish) – mantiqiy nozik, nazariy jihatdan ishora qiluvchi, obrazli, ritmik va tovushli birikmalar orqali o'quvchining tasavvuri, his-tuyg'ulari va ongiga faol ta'sir qilish;

¹ *Tadjibayev Muzaffar Turamirzayevich, Namangan davlat universiteti o'qituvchisi, doktorant*

- Muloqotning gibrid xarakteri – ilmiy-ommabop matn ham ilmiy, ham jurnalistik matnning xususiyatlariga ega bo'ladi. Bundan tashqari ma'lumotni taqdim etishning to'g'ridan to'g'ri bayon va maqola-intervyu kabi shakllarini o'zida mujassam etgan bo'ladi;

- Ko'p vazifaviylik – ilmiy-ommabop matn muallifining strategik harakatlari obyektning muayyan xususiyatlari va muallifning u haqidagi o'y-fikrlarinidan adresatni xabardor qilish jarayonini tartibga soluvchi ma'lum bir aqliy tuzilmani shakllantirishga qaratilgan.[1.12-b]

Ilmiy-ommabop matn yana o'ziga xos matn tuzilish shakliga ega bo'lib, bu uning ustqurmasi deb ataladi. Biz T. A. Van Deyk konsepsiyasida ta'kidlangan fikrga qo'shilgan holda utsqurmani matnning xususiy yoki umumiy ma'nolaridan va ularning mazmunidan mustaqil ravishda mavjud bo'lgan va matnning umumiy tuzilishini belgilaydigan an'anaviy tarxi, bir butun matn tuzilishini tashkil qilgan shakli deb hisoblaymiz.[2.255-b] Ilmiy-ommabop matnlarning tipik-semantik tuzilishi "ilmiy tadqiqot" va unga berilgan "izoh" asosiy komponentlari bilan ifodalanadi. O'z navbatida ushbu komponentlar ham bir qator kichik komponentlarga bo'linadi:

- ilmiy tadqiqot semantik komponenti "ilmiy muammo", "tadqiqot natijalari" va "tadqiqot natijalarini amalda qo'llash" va boshqa subkomponentlardan tashkil topadi;

- izoh komponenti "muallif izohi", "ilmiy tadqiqotchi izohi" va "nomutaxassis izohi" kabi kichik komponentlarni o'z ichiga oladi.

Ilmiy-ommabop matnlarning asosiy pragmatik funksiyalari quyidagilardan iborat:

- axborot berish (o'quvchini yangi ilmiy kashfiyot va ishlanmalardan xabardor qilish);

- ishonitirish (mazkur vazifa ilmiy-ommabop maqolada ilgari surilgan masalalar bo'yicha jamoatchilik fikrini shakllantirish zaruriyatini nazarda tutadi);

- o'quvchi uchun sharhlovchi dastur yaratish (o'quvchining idroki, dunyoqarashi, qarashlarini dasturlash);

- ishonchilikni vujudga keltirish: avtorizatsiya (olim o'zini fan olami vakili va yangi ilmiy ishlanmalar muallifi sifatida ko'rsatib maqola mavzusida bo'yicha shaxsiy fikrini ifodalab beradi);

- e'tiborni jalb qilish va uni saqlab turish (adresatga matnni o'qish jarayonida uning qiziqishini saqlab turadigan eng muhim va ahamiyatli qismlarga urg'u beriladi); dialogizatsiya (maqola muallifi o'quvchiga bevosita murojaat qilish va uni virtual muloqotga tortish orqali matnda o'z ishtirokini bildiradi).

Ingliz va o'zbek tillaridagi ilmiy-ommabop matnlarning tahlili shuni ko'rsatadiki ham ikkala tildagi matnlarda ham o'quvchiga ta'sir o'tkazish orqali pragmatik potensial yaratishda eng ko'p qo'llaniladigan lingvistik vositalardan biri ikkinchi bobning uchinchi faslida so'z yuritganimiz baholovchi leksikadir. Baholovchi leksika ilmiy-ommabop matnda o'quvchilarning atrof muhitni bilishga, anglashga bo'lgan qiziqishlarini qondirib, ularning his-tuyg'ulariga ta'sir qilish orqali ilmiy tadqiqotlarning zarurati va amaliy ahamiyati haqida jamoatchilik fikrini shakllantirish orqali alohida kognitiv-pragmatik rol o'ynaydi. Ilmiy ommabop matnda pragmatik potensialni vujudga keltiruvchi baholovchi leksikaning asosiy mezonlari quyidagilardir: muayyan maqsadga erishish, amaliy ahamiyat va foydalilik, biron bir vazifani bajarish, yangi egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llashga yaroqli-yaroqsizligi, yangi natijalarning

zamonaviy ilm-fan talablariga mos kelish yoki kelmasligi va boshqalardir. Baholash obyektlari sifatida, ko'pincha, tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, tadqiqotning dolzarbligi, masalani o'rganilganlik darajasi, tadqiqot natijalarining o'zi, olimlar faoliyati, tadqiqot natijalarining yangiligi, maqolada ko'tarilgan ilmiy muammo va uning ko'lami va boshqalar bo'lishi mumkin.

Ilmiy-ommabop matnda ratsional baholash vositalari ustunlik qiladi va bu jihat ularni ilmiy matnga yaqinlashtiradi. Misollarga murojaat qilaylik:

This brings us to an important question: If your beliefs and worldview play such an important role in your behavior, where do they come from in the first place? [3.35-b]

Shu tarzda fikrlashda davom etadigan bo'lsangiz, oldingizda qator savollar paydo bo'ladi: afar dunyoqarashingiz va fikrlaringiz xulq-atvoringizga shunchalik katta ta'sir ko'rsatadigan bo'lsa, ularning oz'i qanday paydo bo'ladi? Shaxsiyat qanday shakllanadi? Shaxsiyatning o'sishiga ko'maklashadigan jihatlarni qanday kuchaytirib, xalaqit beradiganlarini asta-sekin so'ndirish mumkin? [4.49-b]

Bizning fikrimizcha ushbu misolda ratsional baholashning ustunligi muallifning taqdimotning maksimal aniqligi, obyektivligi va bir ma'nolilikka intilishi bilan bog'liq.

Tadqiq qilayotgan ingliz va o'zbek tillaridagi ilmiy-ommabop matnlarimizdagi baholovchi leksikaning katta qismi sifatlar, masalan, useful, helpful, important, good, beneficial, user-friendly, effective, efficient, strong, safe; semantik tarkibida sabab, o'zgarish, o'zgarish xususiyatini ko'rsatuvchi semaga ega va miqdor-sifat o'zgarishlarini bildiruvchi fe'llar, masalan, help, provide, improve, add, lead (to), save, reduce, expand; yangilik, foyda, naf, samaradorlik, ustunlik ma'nolarini bildiruvchi ot va ravishlardan iborat va ular matnning pragmatik potensialini vujudga keltirishda alohida ahamiyatga ega.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki baholovchi leksika baholangan tadqiqot natijalariga, ilmiy ishlanmalarga o'quvchini ishonchini oshirish va muallifga ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish bilan bog'liqligini ko'rsatishga yordam berish bilan matnning pragmatik potensialini ta'minlaydi. Ilmiy-ommabop matnlarda pragmatik potensialni oshirish uchun keng qo'llaniladigan tipik leksik vositalar metafora, frazeologizmlar va so'zlashuv lug'atidir. Ularning keng qo'llanilishi ilmiy-ommabop matnning pragmatik maqsadi – o'quvchiga hissiy ta'sir o'tkazish bilan bog'liq. Matnni metaforalashdan maqsad majoziy ma'nolar orqali so'zning semantik doirasini kengaytirishdan iborat bo'lib, bu matnning ekspressiv xususiyatlarini oshiradi va o'z navbatida pragmatik salohiyatni ham oshirishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Киселев, А.Ю. Адресные стратегии в научно-популярном дискурсе : На материале немецкого языка : автореф. дис. ... канд. филол. наук / А.Ю. Киселев. - Самара, 2012. – С. 10.

[2]. Ван Дейк, Т.А. Язык. Познание. Коммуникация / Т.А. ван Дейк. - М.Прогресс, 1989. С. 255.

[3]. James Clear. Atomic habits. AVERY an imprint of Penguin random house LLC. New York. 2018. P. 35.

[4]. Жеймс Клер. Атом одатлар. Тошкент. NIHOL. 2022. 49-б.